



YOSHLARNI TARBIYALASHDA JAXOLATGA QARSHI MA'RIFAT BILAN
KURASHISH

Xoliqova Nasiba Xaytboy qizi

Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani

kasb-hunar maktabi yoshlar ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

Annotatsiya: ushbu maqolada yoshlar qalbidagi ma'naviy bo'shliqni to'ldirish, ularni turli ma'naviy tajovuzlardan himoya qilishda Vatanparvarlik g'oyasining o'rni va ahamiyati qay darajada ahamiyat kasb etishiga tarixiy-nazariy misollar asosida ilmiy izoh berilgan. Shuningdek, maqolada yoshlarimiz qalbida Vatanga muhabbat, buyuk tariximizga, milliy urf-odatlarimizga hurmat singari fazilatlarini shakllantirish orqali jaholatga qarshi kurashish imunitetini kuchaytirish borasida tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: manaviyat, jaholat, immunitet, urf-odat, mustaqillik, diniy bag'rikenglik, siyosiy barqarorlik, vatanparvarlik, ezgulik va yovuzlik, insonparvarlik, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, adolat.

Odamlarda yangi jamiyatga nisbatan yangi munosabatni shakllantirish jarayoni ma'rifat orqali kechadi. Ma'rifat-insonning ma'naviy qaramlik, qo'rquv va hadiksirashdan qutilishiga ijobiy ta'sir etib, uning cheksiz kuch-qudratga ega bo'lishiga yordam beradi. Bu haqida xalqimizning boy tarixidan ko'plab misollar keltirish mumkin. O'z davrining fidoyi farzandlari o'z xalqining kelajagiga daxldor deb xis etganlar va bu yo'lda ma'rifatparvarlik bilan shug'ullanganlar. Masalan, 1929 yilda ma'rifatparvar ziyolilarning sa'y-harakatlari bilan lotin yozuvi asosida o'zbek alifbosi ishlab chiqilgan va joriy etilgan. 1980-1989 yilda o'zbek tiliga davlat maqomini berish to'g'risidagi harakatlarda O'zbekiston ma'rifatparvarlarining hissasi katta bo'ldi. Shunday qilib, ma'naviyatning tarkibiy qismlari o'zaro bog'liklikdan shaxs ma'naviyatining yuksaltirishga samarali ta'sir etadi. Bu ta'sir etish jarayoni ko'pgina holatlarda ma'rifat orqali amalga oshiriladi, ya'ni obyektga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Globalashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganini asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni xolisona tan olish kerak. Bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunib, anglash qiyin emas. Globalashuv – bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir. Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globalashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko'rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgari gidek, bu voqea bizdan juda olisda roy beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi



Dunyo tamadduniga ulkan hissa bo'lib qo'shilgan, zo'ravonliklardan omon chiqqan milliy-ma'naviy qadriyatlar, yuksak axloqiy fazilatlar keng quloqch yoyayotgan texnologik inqilob, axborot kommunikatsiyalari asrida emirilayotgani, olomon madaniyatining ortidagi ulkan kuchlar tomonidan yo'q qilib tashlashga urinilayotgani ham bor gap. Shu bois bugungi kunda oltinga teng ma'naviyatimizni asrab-avaylash dolzarb vazifaga aylangan.

Yoshlardagi ma'naviy bo'shliqni to'ldirish uchun ularni turli tajovuzlardan himoya qilish uchun avvalo ularning qalbida Vatanimizga bo'lgan muhabbatni yanada kuchaytirish, buyuk tariximizni, milliy urf-odatlarimizni qalblariga singdirish zarurdir. Yana milliy o'zligimizga salbiy ta'sir ko'rsatgan milliy qadriyatlarimizni rivojlanib borishiga to'sqinlik qilgan, o'zligimizdan ayirmoqchi bo'lganlarni, eski zamonlardan qolib kelayotgan noma'qul odatlar haqida ham ochiq so'z yuritishimiz zarur. Birinchi navbatda hudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug'chilik va mahalliychilik, manfaatparastlik va korrupsiya, o'zgalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay halos etish to'g'risida chuqur oylashimiz kerak. Binobarin Vatan oiladan boshlanadi. Oiladagi sog'lom tarbiya ham oilaga, oiladagi sog'lom muhit ham insonparvarlik va vatanparvarlik tuyg'usiga poydevor bo'ladi. Mana shu poydevorni mustahkam bo'lishi uchun yuqoridagi illatlarga qarshi mardonavor kurashish zarur, buning uchun esa yuqoridagi aytilgan ma'naviy bo'shliqni to'ldirish lozim.

Psixologlarning ta'kidlashicha, yoshlardagi tajribasizlik va hissiyotga tayangan holda ish yuritishi, tashqi ta'sir natijasida ruhiy holatining o'zgaruvchanligi; ruhiy tushkunlikka tez tushishi va ruhiy zarbalarga chidamsizligi, yaqinlari e'tiboridan butunlay chetda qolishi; o'ta qiziquvchanlik hamda axborotlarni to'laqonli tahlil qilmaslik, ishonuvchanlik kabi qator omillar radikallashuv jarayoniga xizmat qilishi mumkin.

Binobarin, radikal g'oyalar ta'siriga tushib qolgan yoshlar o'z oila a'zolari, yaqinlari, mahalla, ko'cha-ko'ydagi tengdoshlarini ham mutaassib shaxsga aylantiradi. Shuningdek, yoshlarning turli oqimlarga kirib qolishlari sabablari qatorida ularning bilimlari, shu jumladan, diniy ilmlarni egallashga bo'lgan qiziqish va intilishi hamda ishonuvchanligi, birdaniga va hamma narsaga (boyluk, shon-shuhrat, martaba va h.k.) ega bo'lishga harakat qilishi, ilmiy tilda aytganda maksimalizm kabi ma'naviy-ruhiy omillarni ham alohida ajratib ko'rsatish lozim.

Soha mutaxassislarining ta'kidlashicha, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishning asosiy sharti sifatida ish olib borishdan oldin har bir vaziyatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda muayyan reja-dastur asosida chora-tadbirlarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bunda dasturlarning asosiy tarkibiy qismlariga mutaassib g'oyalar ta'siriga tushgan shaxslar bilan o'zaro yaqin munosabat, suhbatlar, diniy munozara va ko'rsatmalar, tajovuzkor xatti-harakatlarning sababi deb qaralgan masalalar bo'yicha o'zaro muloqotlar, psixolog va boshqa mutaxassislarning tavsiya va ko'rsatmalari kiradi.

Shunday ekan mamlakatimiz taraqqiyoti, yurt farovonligi, biz yoshlarga berilgan ishonchni oqlay olishimiz darkor. Har bir yoshning qalbida ilm urug'larini sohib, turli g'araz niyatli kishilar yoshlar ongini zaharlashidan asrab-avaylashimiz, bizni o'zligimizdan, urf-odatlarimizdan ayirmoqchi bo'lgan, yurtimiz tinchligini ko'ra olmaydigan g'arazgoylarga biz o'z bilimlarimiz, tafakkurimiz bilan javob bera olishimiz darkor. Shu maqsadda mamlakatimizda yoshlarning bo'sh vaqitlarini to'g'ri tashkil etish, mazmunli



o'tkazish, ularda Vatanparvarlik, insonparvarlik histuyg'ularini tarbiyalashga katta ahamiyat berilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodiva buyuk kelajakka ishonchdir. T: 2000-y
2. Mirziyayev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T: 2017-y
3. <https://iiv.uz/news/jaholatga-qarshi-marifat-bilan>
4. <file:///C:/Users/User/Downloads/jaholatga-qarshi-marifat.pdf>